

## SOHAVIY TERMINLARNING YASALISH USULLARI

**Norxo‘jayeva Dilfuza Xayrulloevna**

*Termiz davlat universiteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: D.A.Ergasheva*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada terminlar va ularning qanday usullarda hosil bo‘lishi hamda kundalik va maishiy hayot tarzimizda qo‘llanadigan ayrim so‘zlarning termin sifatida turli sohalarda ifodalanishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *termin, morfologik usul, sintaktik usul, semantik usul, transterminlashuv, zoonimlar.*

Termin – har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o‘z-o‘zidan, stixiyali tarzda paydo bo‘lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi.

O.Vinokur

Ma‘lumki, bugungi kunda hayotimizni terminlarsiz tasavvur qilish mushkul. Har bir sohani o‘rganishda, rivojlantirishda terminlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asnoda termini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunoslar (logiklar) uchun termin – aniq obyektga tegishli tavsif yoki tavsiflar yig‘indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so‘z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so‘z termin bo‘lishi mumkin.

Fan va texnikada termin sun‘iy o‘ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so‘z sanaladi. Bunday so‘zlarning qo‘llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi, yoxud chegaralanadi. Umumtil terminlaridan farqli o‘laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o‘z ma‘nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi.

Termin ta‘rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko‘pdan ko‘p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta‘riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi tarzida tavsiflanadi. [1:6]

Demak, termin tushunchasi hamma so‘zlar singari so‘z bo‘lib, u ham ma‘lum bir mustaqil tushuncha anglatadi va bir yoki bir necha nutq tovushining birikishidan iborat bo‘lgan bir vosita hisoblanadi. Terminlar fanning metatili va ilmiy tadqiqotlarning, shuningdek, insonning amaliy faoliyati sohalarining o‘ziga xos voqeligini anglatuvchi so‘zlar (iboralar) sifatida belgilanishi mumkin. Odatda, termin tushunchasi terminotizimda amalga oshiriladigan xususiyatlari orqali aniqlanadi.



Oddiy soʻz birikmalaridan farqli oʻlaroq, terminlardan foydalanish sezgi emas, balki mavjud taʼriflar, qoidalarga asoslanadi. [2:108-109]

Hozirgi paytda fan va texnikaning shiddatli rivojlanayotgani bilan bogʻliq holda elektron, yarim oʻtkazgich, kvant-mexanik uskunalarining yangi turlari soni ortib bormoqda. Ularning nomlari nafaqat mutaxassislar orasida keng koʻlamlarda tarqalmoqda, balki tilning umumxalq qatlamlariga ham asta-sekin kirib bormoqda. Bunday oʻta murakkab muammoni tilshunoslik nuqtai nazaridan hal qilish uchun agar bizni fanning ertangi kuni, uning terminologiyasi, shu terminologiyaning avtomatlashtirish vositalari keng qoʻllanayotgan sharoitlarda haqiqatan ham qiziqтира, sunʼiy tilning formallashtirilgan turlarini yaratishning barcha imkoniyatlarini sinab koʻrish kerak. Shu nuqtai nazardan terminlar va nomenklatur nomlarni standartlash boʻyicha olib borilayotgan barcha ishlar, ayniqsa, terminlarning yasaliishi doimo eʼtiborda boʻlishi kerak. [2:167] Shunga koʻra, tilshunoslikda terminlarning hosil boʻlishi uch xil usul orqali amalga oshadi:

1. Morfologik (affiksial) usul - tildagi biror mavjud terminga bir va baʼzan bir necha yasovchi affikslarning qoʻshilishi bilan yangi termin yasaydi. Masalan:

“Kumush yana tinchiy olmadi: - Bizning urishib qolishimiz uchun Karim sandiqchining ham daxli bor! – dedi”. [3:63] Ushbu gapda qoʻllangan sandiqchi termini affiksial usulda, yaʼni -chi affiksi yordamida yasalgan.

Qazish usullariga koʻra burgʻilash zarbli, aylanma, kolonkali boʻladi. [4:727] Bu gapda esa burgʻilash soʻzi shu jumladandir.

2. Sintaktik (kompozitsion) usul – birikmaning bir komponenti maʼnosi koʻchgan soʻzdan, qolgani esa shu soha terminidan iborat lugʻaviy birlikning hosil boʻlishi tushuniladi. Bunga misol sifatida kundalik hayotimizda qoʻllaydigan: changyutgich, kir mashinasi, mikrotoʻlqinli pech, soch quritgich kabi maishiy-texnikaviy terminlarni keltirish mumkin.

Oʻzbek tili terminologiyasida yakka soʻzli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli oʻrinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda boʻlganidek, oʻzbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi.

3. Semantik usulda bir soha terminologiyasining «mulki» boʻlgan lugʻaviy birlik maʼnosini metaforik koʻchirish asosida ikkinchi bir sohaga oʻtadi.

Semantik usul bilan terminlar hosil boʻlishi, boshqacha aytganda, transterminlashuv (lotincha trans – «orqali, ichidan, oʻrtasidan, orasidan» maʼnolarini anglatadi) jarayonida, birinchidan, umumisteʼmoldagi leksemalarning muayyan soha terminlariga aylanishi, ikkinchidan, biror fan sohasi terminlarining maʼno koʻchishi natijasida boshqa fan sohasi terminologik tizimida qoʻllana



boshlashi isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Ayni shunday jarayon terminshunoslikda «transterminlashuv» deb atalayotganligini ta’kidlash lozim. Ushbu termini qo’llash terminlar semantikasidagi semantik ko’chim hodisasini boshqa (oddiy) leksik birliklardagi holatdan farqlashda ko’proq ahamiyat kasb etadi. Transterminlashgan, ya’ni semantik usulda hosil bo’lgan terminlar terminologik lug’atlarning kattagina qismini tashkil qilib, ularning ayrimlari izohli lug’atlar, ensiklopediyalar, ma’lumotnomalarda ham o’z ifodasini topmoqda. Xususan, zoonimlar misolida ko’rib chiqamiz:

I. Zoonimlar jismoniy tarbiya va sport sohasida. Qaldirg’och termini bu borada maxsus termin sifatida qo’llanadi, ya’ni “ bir oyoqni orqaga uzatib, gavnani gorizantal holatda egib, qo’llarni yon tomonlarga uzatib qilinadigan mashq”.

II. Zoonimlar kasb-hunar sohasida. Tovus kashta “o’yib, tikib, to’qib yoki bo’yoq bilan ishlangan gul yoki bezak”.

III. Zoonimlar boshqa sohalar terminologiyasida. Tibbiyot sohasida qo’llanuvchi rentgen termini: “Kabinetga yangi rentgen apparati zarur edi, R.Murodov ana shu apparatni olib berishni so’rab, yana bosh vrachga murojaat qildi”. [5:4] gapda rentgen apparat ma’nosida qo’llangan, biroq u kishi ismidan buyumni ifodalovchi terminga transpozitsion usulda ko’chgan. Kimyo sohasida qo’llanuvchi Mendeleev davriy sistemasi, geografiyadagi atlas terminlari ham transpozitsiyaning bir ko’rinishlaridir.

“Zamira ko’pchilikning talabi bilan o’rnidan turar ekan, qizil atlas ko’ylagining rangi yuziga urganday qip-qizarib ketdi”. [6:60]

Atlas – muayyan maqsadlarda va muayyan tizim asosida tanlab olingan kartalardan iborat bo’lgan va tushuntirish matnlari bilan albom shaklida nashr etilgan to’plam.


Birinchi gapda atlas termini mato ma’nosini ifodalasa, ikkinchi gapda geografik termini bildiriyapti.

“Mexanik bolaning ko’zlari yashnab ketdi, shundoq juvoni qo’l ostida ishlaydi”. [7:556] gapda mexanik termini kasb ma’nosida ishlatilgan bo’lsa, fizik sohada fizik termin sifatida qo’llanadi.

tibbiyotda qo’llanuvchi sariq, ya’ni kasallik nomini bildiruvchi termin ham mavjud va u rang jihatidan ma’noviy bog’liqlikni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur so’zlar til taraqqiyoti yoki undagi evolyutsion taraqqiyot natijasida avvalgi ma’nosidan boshqa ma’nolarni anglatuvchi so’zga aylangan. Ma’nodagi yaxlitlik shakliy yaxlitlikka olib kelgan, so’z ma’nosida semantik ajralish voqe bo’lgan. So ‘zlarning semantik usulda hosil bo’lishi natijasida





kundalik hayotda qo'llaydigan ma'lum bir so'zlarimiz termin vazifasini bajaradi va ma'no yaxlitligi bois bevosita jamiyatga tushunarli bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Hamidulla Dadaboyev. O'zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi.- T:2019.
- 2.A.Pardayev, D.B.Urinbayeva, D.A.Islamova. O'zbek terminologiyasi (o'quv qo'llanma).- Samarqand 2020.
- 3.A.Qodiriy. O'tkan kunlar.
- 4.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- 5.“Mushtum” jurnali.
- 6.P.Qodirov. Uch ildiz.
- 7.S.Ahmad. Ufq.

